



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI



12-avgust
2026

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi

“MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENTNING ROLI”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya





IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 258 sahifa.
2026-yil, avgust*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.

KIRISH

EKOLOGIK QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA “YASHIL” TARAQQIYOT BORASIDAGI PARLAMENT NAZORATI



Xamzayev Abdushukur Xudoykulovich
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi
O‘zbekiston ekologik partiyasi fraksiyasining rahbari

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Jahonda kechayotgan iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, suv resurslari tanqisligi, yerlarning degradatsiyasi va atrof-muhit ifloslanishi kabi ekologik tahdidlar barcha davlatlar oldida umumiy vazifalarni qo‘ymoqda. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror rivojlanishning huquqiy asoslarini mustahkamlashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilashni taqozo etmoqda.

“Yashil” taraqqiyotni ta‘minlash zamon talablariga javob beradigan qonunchilik bazasini shakllantirish, uni muntazam takomillashtirib borish hamda qabul qilingan qonunlar ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini ta‘minlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan ekologik qonunchilik samaradorligini oshirish muhim omil hisoblanadi.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini hayotga keng joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning huquqiy poydevorini mustahkamlash hamda ularning ijrosini ta‘minlashda parlamentning o‘rni va mas‘uliyati tobora ortib bormoqda.

Ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” taraqqiyotga erishish har qanday davlatning puxta o‘ylangan huquqiy siyosatiga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda ekologik sohadagi qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Eng avvalo, 2023-yilda xalqimizning xohish-istaklari asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi muqaddimasidagi «mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga, hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib...» degan jumlar ham bu borada mamlakatimiz o‘zining aniq va mustahkam pozitsiyasiga ega ekanini anglatadi. Bundan tashqari, Bosh Qomusimizda ijtimoiy, iqtisodiy huquqlar qatori «ekologik huquq» tushunchasi kiritildi.

Xususan, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi, tabiiy boyliklarni asrab-avaylash hamda kelgusi avlodlar manfaatlarini ta‘minlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Keyingi yillarda o‘rmonlardan foydalanish, yaylovlarni muhofaza qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik audit, gidrometeorologiya, organik mahsulotlar ishlab chiqarish, ichimlik suvi ta‘minoti hamda suv resurslarini boshqarish sohalarida qabul qilingan qonunlar mazkur yo‘nalishda yaxlit huquqiy tizimni shakllantirishga xizmat qildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ekologik qonunchilikni takomillashtirishda quyidagi yo‘nalishlar ustuvorlik kasb etdi:

birinchidan, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash;

ikkinchidan, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va oldini olish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish;

uchinchidan, yerdan foydalanish va muhofaza qilish;

to‘rtinchidan, yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilish;

beshinchidan, suvdan foydalanish va muhofaza qilish;

oltinchidan, o‘simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish;

yettinchidan, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish;

sakkizinchidan, atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi;

to‘qqizinchidan, gidrometeorologiya sohasi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

2016–2025-yillarning o'zida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 30 ga yaqin qonun qabul qilinib, ular ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishning zamonaviy tizimini yaratish uchun poydevor bo'ldi.

Jumladan, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'rmon to'g'risida", "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to'g'risida", "Ekologik audit to'g'risida", "Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida", "Organik mahsulotlar to'g'risida", "Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida", "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida", "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi yaxlit va yangi tahrirdagi qonunlar hamda Suv kodeksining qabul qilinishi mamlakatimizda ekologik siyosatning huquqiy asoslarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur qonunlar nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirdi, balki iqlim o'zgarishiga moslashish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, biologik xilma-xillikni asrash hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining huquqiy poydevorini mustahkamladi.

Bugungi kunda ekologik qonunchilikning asosiy vazifasi faqat tabiatni muhofaza qilish bilan cheklanmaydi. U investitsiya siyosatini shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish, "yashil" texnologiyalarni rag'batlantirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish hamda aholining munosib hayot sifatini ta'minlashning muhim huquqiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatimiz xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida bir qator xalqaro hujjatlarga qo'shildi.

Xususan:

Qonunchilik palatasi majlislarida hukumat a'zolarining Qonunchilik palatasi deputatlari savollariga javoblarini eshitish — "Hukumat soati";

davlat organlari rahbarlarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitish;

Qonunchilik palatasi tomonidan davlat organlarining mansabdor shaxslariga qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi masalalari yuzasidan parlament so'rovi yuborish;

Qonunchilik palatasining tegishli qo'mitasi tomonidan davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish;

qonun hujjatlarining ijrosi holatini va huquqni qo'llash amaliyotini tegishli qo'mita tomonidan o'rganish hamda qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish;

deputatlik so'rovlari yuborish va boshqa shakllarda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi va uning deputatlari ham mazkur jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

2025-yil davomida Ekologik partiya fraksiyasi tashabbusi bilan ekologik masalalar yuzasidan 2 marotaba hukumat a'zolarining axboroti eshitildi va davlat organlarining mansabdor shaxslariga 3 marotaba parlament so'rovi yuborildi.

Shu bilan birga, fraksiya yig'ilishlarida sohadagi qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi yuzasidan 13 marotaba tegishli mansabdor shaxslarning axborotlari eshitildi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Fraksiyamiz Qonunchilik palatasi deputatlari bilan hamkorlikda kelgusida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarni tizimlashtirish, qonunlarda huquqiy tartibga solish mexanizmlarini aniq belgilashga qaratilgan qonun loyihalari ustida ish olib bormoqda.

Jumladan:

ekologik qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiyalashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya kodeksini maromiga yetkazish;

"Hayvonlarni shafqatsiz munosabatdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini;

"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Chiqindilar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Atrof-muhit monitoringi to'g'risida"gi yangi qonun loyihasini ishlab chiqish oldimizda turgan ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xulosa o'rinda aytishimiz mumkinki, Yangi O'zbekistonda ekologik qonunchilikni takomillashtirish va "yashil" taraqqiyotni ta'minlash jarayonida parlament nafaqat qonun qabul qiluvchi oliy vakillik organi, balki qabul qilingan qonunlarning hayotga to'liq va samarali tatbiq etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshiruvchi muhim konstitutsiyaviy institut sifatida ham alohida o'rin tutadi.

Ishonchim komilki, mazkur xalqaro konferensiya doirasida bildiriladigan ilmiy yondashuvlar, amaliy takliflar va ilg'or tajribalar ekologik qonunchilikni yanada takomillashtirish, o'zaro tajriba almashish hamda barqaror va "yashil" taraqqiyot maqsadlariga erishish yo'lida muhim muvaffaqiyat maydoni bo'lib xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat!



MUNDARIJA

AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA EKOLOGIK TA'LIM, JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA SHAXSIY JAVOBGARLIK: 2025–2026-YILLARDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR TAHLILI.....	16
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	
BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI MILLIY DARAJADA AMALGA OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	24
Teshaboyev To'liqin Zakirovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI IQTISODIY VA HUQUQIY QO'LLAB-QUVVATLASH, INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	31
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna	
TAKOMILLASHTIRISH: YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	37
Shamsiddin Allayarov	
EKOLOGIYA SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	45
S. Sh. Utemuratova	
EKOLOGIK BARQARORLIK — YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUSTAHKAM POYDEVORI.....	49
G'afforov X. L.	
MENEJMENT VA BIZNES BOSHQARUVIDA EKOLOGIK, YONDASHUV, ESG TAMOIYILLARI, “YASHIL” STRATEGIYA VA KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARI	58
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich	
РОЛЬ ГРУППЫ ДЕПУТАТОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ДВИЖЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ	65
Алиханов Борий Батирович Сангинов Саидрасул Сайдакпарович	
YASHIL ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISH HAMDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL PARTIYALARNING GLOBAL AHAMIYATI.....	69
Qo'chqorov Islomjon Nurali o'g'li Xursanov Kamoljon Erkinjon o'g'li	
RESPUBLIKAMIZDA EKOLOGIK SIYOSAT VA XAVFSIZLIK MASALALARI.....	73
Raximov Oybek Raimovich Xofizov Baxriddin Turdievich	
AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA TA'LIM IMKONIYATLARI (STEAM YONDASHUVI MISOLIDA).....	76
N. Matkarimova	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR PARLAMENTINI MUHIM DEMOKRATIK INSTITUT SIFATIDA SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI VA ISTIQBOLDAGI REJALAR.....	80
Abdullayev Muxammadqodir Mashxur o'g'li Xushvaqtov Feruzbek Ilxom o'g'li	
СОТРУДНИЧЕСТВО ПАРЛАМЕНТА УЗБЕКИСТАНА С ННО В ПОВЫШЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ	83
Сангинов Саидрасул Сайдакпарович	
OROLBO'YI MINTAQASIDA «SUV IQTISODIYOTI» VA «YASHIL OBLIGATSIYALAR» (GREEN BONDS) TIZIMINI YANADA RIVOJLANTIRISHDA PARLAMENT NAZORATI VA QONUNCHILIK MEXANIZMLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	87
Otamuratov Oybek Baxtiyorovich	



OROLBO'YI MINTAQASIDA «SUV IQTISODIYOTI» VA «YASHIL OBLIGATSIYALAR» (GREEN BONDS) TIZIMINI YANADA RIVOJLANTIRISHDA PARLAMENT NAZORATI VA QONUNCHILIK MEXANIZMLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

Otamuratov Oybek Baxtiyorovich

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati,

Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi a'zosi

ORCID: 0009-0004-8031-1120

Annotatsiya. Mazkur maqolada iqlim o'zgarishi va transchegaraviy suv tanqisligi kuchayib borayotgan sharoitda Orolbo'yi mintaqasi, jumladan, Xorazm viloyatida suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda «suv iqtisodiyoti»ni rivojlantirish masalalari kompleks tahlil qilingan. Suv tejovchi va ekologik loyihalarni moliyalashtirishning innovatsion vositasi sifatida yashil obligatsiyalar (Green Bonds) bozorini rivojlantirish, mavjud milliy yashil moliyalashtirish tizimidan mintaqa manfaatlari yo'lida samarali foydalanish, shuningdek, hududiy (subsuveren) va korporativ yashil obligatsiyalarni joriy etish yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining qonun ijodkorligi va parlament nazorati funksiyalarini takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Orolbo'yi mintaqasi, Xorazm viloyati, suv iqtisodiyoti, suv resurslari, yashil obligatsiyalar, yashil moliyalashtirish, suv tejovchi texnologiyalar, parlament nazorati, qonun ijodkorligi, subsuveren obligatsiyalar.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the rational use of water resources and the development of the "water economy" in the Aral Sea region, particularly in Khorezm Region, amid increasing climate change impacts and transboundary water scarcity. It examines the development of the green bond market as an innovative instrument for financing water-saving and environmental projects, the effective use of the existing national green finance system in the interests of the region, and the introduction of regional (sub-sovereign) and corporate green bonds. The article also proposes measures to improve the legislative and parliamentary oversight functions of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis.

Keywords: Aral Sea region, Khorezm Region, water economy, water resources, green bonds, green finance, water-saving technologies, parliamentary oversight, legislative activity, sub-sovereign bonds.

Аннотация. В статье комплексно проанализированы вопросы рационального использования водных ресурсов и развития «водной экономики» в регионе Приаралья, в частности в Хорезмской области, в условиях усиления климатических изменений и трансграничного дефицита воды. Рассмотрены направления развития рынка зелёных облигаций как инновационного инструмента финансирования водосберегающих и экологических проектов, эффективного использования действующей национальной системы зелёного финансирования в интересах региона, а также внедрения региональных (субсуверенных) и корпоративных зелёных облигаций. Разработаны предложения по совершенствованию законодательской и парламентской контрольной деятельности Законодательной палаты Олий Мажлиса.

Ключевые слова: регион Приаралья, Хорезмская область, водная экономика, водные ресурсы, зелёные облигации, зелёное финансирование, водосберегающие технологии, парламентский контроль, законодательская деятельность, субсуверенные облигации.

KIRISH

Markaziy Osiyo, xususan, Orolbo'yi mintaqasi so'nggi o'n yilliklarda sodir bo'layotgan global iqlim o'zgarishi va transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish borasidagi ortib borayotgan bosim natijasida jiddiy ekologik va iqtisodiy xavf-xatarlar bilan to'qnash kelmoqda. Orol dengizining qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik



falokat nafaqat mintaqa ekotizimiga, balki atrofdagi viloyatlarning qishloq xo'jaligi, aholi salomatligi va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yillik taraqqiyot yo'liga nazar tashlansa, ekologik barqarorlikni ta'minlash va tabiiy resurslardan tejamkorona foydalanish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganini ko'rish mumkin. Ayniqsa, «O'zbekiston — 2030» strategiyasida belgilangan vazifalar doirasida suv xo'jaligini modernizatsiya qilish, suv yo'qotishlarini kamaytirish va aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Orolbo'yi mintaqasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblangan Xorazm viloyati o'zining geoeologik va gidrologik joylashuviga ko'ra Amudaryoning quyi oqimida joylashgan bo'lib, yuqori suv iste'moli va iqlim o'zgarishi ta'siriga tobeligi yuqori bo'lgan hudud hisoblanadi. Viloyatda sug'oriladigan yerlarning katta qismi eski, samaradorligi past sug'orish tizimlariga asoslanganligi sababli suv yo'qotishlari yuqoriligidan qolmoqda, bu esa, o'z navbatida, yer unumdorligining pasayishi va sho'rlanish jarayonlarini kuchaytirmoqda. Viloyat aholisi va qishloq xo'jaligining suvga bo'lgan ehtiyojini barqaror ta'minlash an'anaviy boshqaruv usullaridan zamonaviy «suv iqtisodiyoti» hamda «yashil moliyalashtirish» modellariga o'tishni talab etadi.

Mazkur sharoit davlat budjeti mablag'lari bilan bir qatorda, xususiylar va xalqaro investitsiyalarni jalb etishga xizmat qiluvchi yangi moliyaviy instrumentlarni, jumladan, «yashil obligatsiyalar» (Green Bonds) bozorini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi 2023-yil 2–4-oktabr kunlari Nyu-York, Boston va Londonda o'tkazilgan uchrashuvlar yakunida MDH davlatlari orasida birinchi bo'lib 4,25 trillion so'mlik suveren «yashil» xalqaro obligatsiyalarni hamda 660 million AQSh dollari miqdoridagi boshqa suveren xalqaro obligatsiyalarni London fond birjasida muvaffaqiyatli joylashtirdi [14]. Yashil obligatsiyalardan jalb etilgan mablag'larni suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, shamol eroziyasining oldini olish hamda suv xo'jaligi obyektlarini qum bosishidan himoya qiluvchi ihotada daraxtzorlarini barpo etish kabi yo'nalishlarga sarflash belgilangan. Mazkur yo'nalishlar Orolbo'yi mintaqasi, xususan, Xorazm viloyati uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Biroq bunday instrumentlarning samarali ishlashi uchun ularni tartibga soluvchi aniq va izchil huquqiy normalar hamda mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan samarali parlament nazorati zarur. Aynan shu nuqtada Oliy Majlis Qonunchilik palatasining qonun ijodkorligi va nazorat funksiyalarini kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Rasmiy taqsimot va ta'sir hisobotlarida ayrim obligatsiya emissiyalari bo'yicha mablag'larning hududiy taqsimoti keltirilgan. Jumladan, 2024-yilgi BRM obligatsiyalari hisobotida Xorazm viloyatining ulushi 6 foiz, Qoraqalpog'iston Respublikasining ulushi esa 5 foiz deb ko'rsatilgan. Biroq Orolbo'yi hududlarida moliyalashtirilgan aniq loyihalar, ularning natijadorlik indikatori va suv xo'jaligiga yo'naltirilgan mablag'lar bo'yicha barcha emissiyalarni qamrab oluvchi yagona, loyiha darajasidagi detallashtirilgan hisobot tizimi yetarlicha shakllanmagan [16].

Tadqiqotning maqsadi — Orolbo'yi mintaqasi, xususan, Xorazm viloyatida suv iqtisodiyotini rivojlantirish va yashil obligatsiyalar tizimini joriy etishda, shuningdek, mintaqaviy (subsuvveren) va korporativ darajadagi yangi yashil moliyaviy instrumentlarni rivojlantirishda parlamentning qonunchilik hamda nazorat funksiyalarini takomillashtirishga doir ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy, statistik-iqtisodiy hamda manbalarni o'rganish metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqot uchun asos sifatida quyidagi ma'lumot manbalari o'rganildi:

— O'zbekiston Respublikasining suv, ekologiya va moliya sohalaridagi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari, jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 30-iyuldagi O'RQ-1076-son Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Suv kodeksi [2], O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda 754-XII-son «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni [20], O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrda O'RQ-360-son Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi [18] hamda O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 3-iyundagi O'RQ-387-son Qonuni bilan yangi tahrirda tasdiqlangan «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi Qonuni [19].

— Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan qabul qilingan qarorlar, shuningdek, parlament eshituvlari materiallari;

— xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, BMT Taraqqiyot dasturi) hisobotlari va Green Bonds bozoriga oid xalqaro tajriba;

— Xorazm viloyati suv xo'jaligi boshqarmasi va statistika idoralarining ochiq ma'lumotlari.

Qiyosiy-huquqiy metod orqali xorijiy davlatlar, jumladan, Qozog'iston, Markaziy Osiyodan tashqarida esa Xitoy va Hindistonning yashil obligatsiyalar bozorini tartibga solish tajribasi o'rganildi va O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan takliflar ishlab chiqildi. Statistik-iqtisodiy tahlil orqali Xorazm viloyatidagi suv xo'jaligi infratuzilmasining hozirgi holati va investitsiya ehtiyojlari baholandi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Xorazm viloyatida suv xo'jaligining hozirgi holati: rasmiy ko'rsatkichlar

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Xorazm viloyatida suv tejovchi texnologiyalarni, jumladan, tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish tizimlarini joriy etish sur'ati so'nggi yillarda ortib bormoqda, biroq bu jarayon Orolbo'yi mintaqasida joylashgan ushbu hudud uchun hali yetarli darajada emas. Mamlakatdagi, shu jumladan, Orolbo'yi mintaqasidagi mavjud gidrotexnik inshootlar va sug'orish tarmoqlarining katta qismi eskirgan bo'lib, ularni to'liq modernizatsiya qilish davlat budjeti yoki fermer xo'jaliklarining o'z mablag'lari hisobidagina amalga oshirish imkonsiz bo'lgan hajmdagi investitsiyalarni talab etadi.

Ma'lumot uchun, respublika bo'yicha raqamlarni keltiradigan bo'lsak, bugungi kunda mamlakat suv xo'jaligi tizimi 70 dan ortiq suv ombori, 180 ming kilometrga yaqin sug'orish tarmog'i, 1 700 ga yaqin nasos stansiyasi hamda 10 mingdan ziyod turli xil gidrotexnika inshootlarini (gidropostlar, dyukerlar, gidrouzellar va boshqalar) o'z ichiga oladi. Shundan Xorazm viloyatida 79 ta meliorativ nasos stansiyasi, 1 000 dan ortiq gidrotexnika inshooti va 134 ta agregat mavjud. Xorazm viloyatidagi jami 266 ming gektar yer maydonining 202 927,0 gektarini sug'oriladigan yerlar tashkil etsa, shundan 150 136,0 gektari nasos stansiyalari orqali sug'oriladi. Ushbu yer maydonlarining taxminan 191,3 ming gektari Toshsoqa magistral kanali tizimi orqali sug'oriladi [10, 11].

Mamlakatimizda so'nggi to'qqiz yilda sohaga 5,7 mlrd dollar yo'naltirildi. Sug'oriladigan maydonlarda suv tejovchi texnologiyalar qamrovi 2017-yilgacha bo'lgan 19 ming gektardan 2026-yilda 2,6 million gektarga, ya'ni sug'oriladigan yerlarning 60 foiziga yetdi. Mazkur texnologiyalar hisobiga har yili 2,5 milliard kub metr suv tejalmogda [17]. Xorazm viloyatida esa bugungi kunga qadar suv tejovchi texnologiyalar 234,1 ming gektarda (29,8 ming gektarda tomchilatib, 9,1 ming gektarda yomg'irlatib, 3,7 ming gektarda diskret va 7,2 ming gektarda boshqa zamonaviy texnologiyalar, shuningdek, 184,3 ming gektar maydonda lazerli tekislash) joriy etilgan.

Suv xo'jaligi vazirligining 2025-yil 4-aprel holatiga ko'ra tayyorlangan hisobotida ta'kidlanishicha, joriy yilda g'alla maydonlarida yomg'irlatib sug'orish texnologiyalarini joriy etish bo'yicha rejaning bajarilishida hududlar kesimida Xorazm viloyatida nisbatan past ko'rsatkich qayd etilgan: joriy yilda rejalashtirilgan 1 300 gektar o'rniga atigi 805 gektari moliyalashtirilgan va faqat 288 gektarida qurilish yakunlangan, ya'ni rejaning taxminan 22 foizigina bajarilgan. Paxta maydonlarida intensiv agrotexnologiya asosida tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy etish bo'yicha esa (respublika bo'yicha reja — 172,3 ming gektar) Xorazmda pudrat shartnomalarini rasmiylashtirish ko'rsatkichi 65 foizni tashkil etgan. Bu respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan (88 foiz) ancha past [12].

Davlat bu borada Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatini alohida rag'batlantirmoqda: amaldagi qarorlarga ko'ra, paxta maydonlarida tomchilatib sug'orish tizimlarini joriy etgan fermer xo'jaliklariga mamlakat bo'yicha gektariga 8 mln so'm subsidiya berilsa, aynan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida bu ko'rsatkich gektariga 12 mln so'mni tashkil etadi [13]. Shunga qaramay, yuqorida keltirilgan ijro ko'rsatkichlari bu imtiyozli subsidiya mexanizmi doirasida kutilgan natijalarga hali to'liq erishilmaganini ko'rsatadi. Demak, muammo faqat moliyaviy rag'batda emas, balki loyihalarni amalga oshirishdagi institutsional va tashkiliy to'siqlarda hamdir.

Yashil moliyalashtirishning mumkin bo'lgan imkoniyatlari

«Green Bonds» — ekologik toza va suv tejovchi loyihalarni moliyalashtirish uchun chiqariladigan maqsadli qimmatli qog'ozlar — xalqaro va mahalliy investorlar kapitalini jalb qilishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi 2023-yil oktabr oyida MDH mamlakatlari ichida birinchi bo'lib suveren «yashil» xalqaro obligatsiyalarni (4,25 trln so'm va 660 mln AQSh dollari) London fond birjasida muvaffaqiyatli joylashtirdi. Loyihalarni tanlashga BMT Taraqqiyot dasturi jalb qilingan [14]. Shundan so'ng Iqtisodiyot va moliya vazirligi xalqaro bozorlarda suveren obligatsiyalarni muntazam ravishda joylashtirishni davom ettirdi: 2024-yilda 3 trln so'm (16,625 foiz stavkada), 2025-yilda 6 trln so'm (15,5 foiz stavkada), 2026-yil 1-aprelda esa 1 mlrd AQSh dollari ekvivalentidagi milliy valyutada nominatsiyalangan obligatsiyalar rekord darajadagi past — 12,25 foiz stavkada joylashtirildi [15]. Shuni ham ta'kidlash lozimki, keyingi chiqarilishlarning barchasi rasman «yashil» deb e'lon qilinmagan — ularning qaysi qismi yashil taksonomiya mezonlariga mos loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgani to'g'risida ma'lumot ko'rsatilmagan.

Ushbu vosita orqali jalb etilgan mablag'lar Orolbo'yi mintaqasida, xususan, Xorazm viloyatida quyidagi yo'nalishlarga sarflanishi mumkin:

- zovur va sho'r yuvish tizimlarini raqamlashtirish va modernizatsiya qilish;
- suv manbalarida quyosh energiyasi asosidagi nasos stansiyalarini o'rnatish;
- ichimlik va sug'orish suvi isrofini qisqartirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish;
- fermer xo'jaliklarida tomchilatib sug'orish tizimlarini keng joriy etish dasturlarini amalga oshirish.



Ushbu yo'nalishdagi ishlar izchil davom etmoqda. 2024-yil may oyida O'zbekiston qo'shimcha ravishda 600 million yevro, keyinroq yana 500 million yevro miqdoridagi barqaror rivojlanish (sustainability) obligatsiyalarini xalqaro bozorlarda joylashtirdi [16]. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, hukumat ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) moliyalashtirishni yanada kengaytirish hamda bu borada muntazam hisobotlar tayyorlashni rejalashtirmoqda [16]. Bu mazkur maqolada taklif etilayotgan hududlar kesimidagi detallashtirilgan hisobot mexanizmini aynan hozir, dastur kengayish bosqichida qonunchilikka kiritish uchun qulay imkoniyat yaratadi: mazkur masalani parlament kun tartibida o'z vaqtida ko'rib chiqish kelgusida kengayishi kutilayotgan ESG obligatsiyalari portfeli ustidan samarali nazorat mexanizmlarini shakllantirish imkonini beradi.

Shunday qilib, hozirgi bosqichdagi asosiy vazifa yashil obligatsiyalar bozorini izchil rivojlantirish va uning huquqiy asoslarini takomillashtirishdan iborat. Yashil va BRM obligatsiyalari bo'yicha ayrim hisobotlarda mablag'larning hududiy taqsimoti keltirilgan bo'lsa-da, barcha emissiyalarni qamrab oluvchi, aniq loyihalar, ajratilgan mablag'lar va natijadorlik ko'rsatkichlarini yagona shaklda aks ettiruvchi loyiha darajasidagi hisobot tizimi yetarlicha rivojlanmagan. Shuningdek, korporativ yashil obligatsiyalar bozori shakllana boshlagan bo'lsa-da, hududiy (subsueren) obligatsiyalarni chiqarish va ulardan Orolbo'yi mintaqasidagi suv xo'jaligi loyihalarini moliyalashtirishda foydalanish amaliyoti hali keng rivojlanmagan.

Qonunchilikni takomillashtirish zarurati

O'zbekistonda Milliy «yashil» iqtisodiyot taksonomiyasi tasdiqlangan bo'lib, unda suv va xomashyo resurslaridan foydalanish samaradorligi, jumladan, suv tejovchi sug'orish, suvni saqlash va taqsimlash texnologiyalari «yashil» faoliyat yo'nalishlari sifatida belgilangan. Shunga qaramay, yashil obligatsiyalarni chiqarish, jalb etilgan mablag'larning maqsadli sarflanishini baholash, mustaqil tekshirish va ta'sir natijalarini hududlar hamda loyihalar kesimida e'lon qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurati mavjud.

Sueren yashil obligatsiyalar muvaffaqiyatli joriy etilgan va korporativ yashil obligatsiyalar bozori shakllana boshlagan bo'lsa-da, hududiy (subsueren) emissiyalarni amalga oshirish, Orolbo'yi hududlaridagi loyihalarni alohida moliyalashtirish hamda barcha emissiyalar bo'yicha bir xil shakldagi loyiha darajasidagi hisobotlarni yuritish mexanizmlari yetarlicha rivojlanmagan. Shu sababli Milliy «yashil» iqtisodiyot taksonomiyasini amaliyotga izchil tatbiq etish, uning mezonlarini muntazam takomillashtirish va suv xo'jaligi loyihalari bo'yicha o'lchanadigan natijadorlik ko'rsatkichlarini belgilash maqsadga muvofiq.

Orolbo'yi mintaqasi va Xorazm viloyatida suv iqtisodiyotini mustahkamlash hamda yashil moliyaviy instrumentlarni keng joriy etishda parlamentning rolini oshirish yuzasidan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish

O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi Qonuniga, Suv kodeksiga va yashil obligatsiyalarni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarga: a) «yashil obligatsiyalar» (Green Bonds) tushunchasini, ularni chiqarish va joylashtirish tartibini, shuningdek, tushgan mablag'larni aynan ekologik yuklama yuqori bo'lgan hududlar, jumladan, Orolbo'yi mintaqasidagi loyihalarga yo'naltirish mexanizmlarini mustahkamlovchi normalarni kiritish; b) yashil obligatsiyalar mablag'larining hududlar va ekologik ustuvor mintaqalar kesimida qanday sarflanganini har yili detallashtirilgan holda e'lon qilish majburiyatini belgilash; v) viloyat hokimliklari yoki suv xo'jaligi sohasidagi davlat korxonalari tomonidan mintaqaviy yoki korporativ yashil obligatsiyalar chiqarilishiga yo'l ochuvchi va uni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni kiritish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, «yashil taksonomiya»ni to'liq me'yoriy hujjat darajasida rasmiylashtirish hamda unda suv tejovchi va chuchuk suv manbalarini muhofaza qiluvchi loyihalar mezonlarini aniq belgilash zarur.

Parlament nazorati va monitoring tizimini kuchaytirish

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan Orolbo'yi mintaqasiga, shu jumladan, Xorazm viloyatiga yo'naltirilayotgan davlat hamda jamoat fondlari mablag'lari, shu jumladan, yashil obligatsiyalar hisobidan moliyalashtirilayotgan loyihalarning manzilliligi va samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bo'yicha tizimli parlament eshituvlarini tashkil etish tavsiya etiladi. Bunday eshituvlar yiliga kamida ikki marta o'tkazilishi va ularning natijalari jamoatchilikka ochiq hisobot shaklida taqdim etilishi lozim. Shu bilan birgalikda, suv tejovchi texnologiyalar va suv iqtisodiyoti bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlari ijrosini «Parlament nazorati to'g'risida»gi Qonunga muvofiq doimiy monitoring qilib borish lozim.

Hududiy iqtisodiy va soliq rag'batlari

Xorazm viloyati va Orolbo'yi mintaqasida suv tejovchi innovatsion loyihalar hamda yashil obligatsiyalar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarda ishtirok etuvchi investor va tadbirkorlarga mahalliy va respublika soliqlaridan vaqtinchalik imtiyozlar berish imkoniyatini qonunchilik darajasida ko'rib chiqish taklif etiladi. Bu, o'z navbatida, xususiy sektor investitsiyalarini mintaqaga jalb qilishda qo'shimcha rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.



Institutsional hamkorlik

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Markaziy bank, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi o'rtasida yashil obligatsiyalar bozorini muvofiqlashtirish bo'yicha doimiy ishchi guruh tashkil etish, shuningdek, xalqaro moliya institutlari bilan texnik yordam dasturlari doirasida hamkorlikni kengaytirish zarur, deb hisoblaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Orolbo'yi mintaqasi, xususan, Xorazm viloyatida «suv iqtisodiyoti»ni rivojlantirish va suv resurslaridan oqilona foydalanish ekologik barqarorlikni, iqtisodiy xavfsizlikni va hududning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashning muhim shartlaridan biridir. «Yashil obligatsiyalar» kabi zamonaviy moliyaviy instrumentlarni qonunchilik darajasida tatbiq etish, hududlar kesimida detallashtirilgan hisobot berish majburiyatini qonunchilikka kiritish, mintaqaviy va korporativ yashil obligatsiyalarni rivojlantirish hamda bu jarayonda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining qonun ijodkorligi va nazorat-tahlil funksiyalarini faollashtirish orqali Orolbo'yi hududida barqaror ekologik-iqtisodiy o'sishga va aholi turmush farovonligini oshirishga erishish mumkin. Maqolada keltirilgan takliflar keyingi qonunchilik tashabbuslari va parlament eshituvlari uchun amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi : 2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan referendumda qabul qilingan [Elektron resurs]. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/6445147> (murojaat sanasi: 06.08.2026).
2. O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 30-iyuldagi O'RQ-1076-son Qonuni «O'zbekiston Respublikasining Suv kodeksini tasdiqlash to'g'risida» [Elektron resurs]. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7655336> (murojaat sanasi: 06.08.2026).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni «Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida» [Elektron resurs]. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8050769> (murojaat sanasi: 06.08.2026).
4. United Nations General Assembly. Declaring the Aral Sea Region a Zone of Ecological Innovations and Technologies : Resolution A/RES/75/278, adopted on 18 May 2021 [Electronic resource]. — New York : United Nations, 2021. — 3 p. — URL: <https://digitallibrary.un.org/record/3928288> (accessed: 06.08.2026).
5. World Bank. Uzbekistan Country Climate and Development Report [Electronic resource]. — Washington, DC : World Bank, 2023. — URL: <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/ccdr> (accessed: 06.08.2026).
6. Asian Development Bank. Detailed Guidance for Issuing Green Bonds in Developing Countries [Electronic resource]. — Mandaluyong City : Asian Development Bank, 2021. — 50 p. — ISBN 978-92-9269-285-8. — DOI: 10.22617/TIM210521-2. — URL: <https://www.adb.org/publications/guidance-issuing-green-bonds> (accessed: 06.08.2026).
7. Saydullaev Sh. The State of Green Bonds Issuing in Central Asian Countries: Comparative Analysis // Economics and Innovative Technologies. — 2024. — Vol. 12, No. 2. — P. 1–7. — DOI: 10.55439/EIT/vol12_iss2/a1. — URL: <https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/iit/article/view/485> (accessed: 06.08.2026).
8. Climate Bonds Initiative. Sustainable Debt Market Summary H1 2024 [Electronic resource]. — London : Climate Bonds Initiative, 2024. — URL: <https://www.climatebonds.net/data-insights/publications/sustainable-debt-market-summary-h1-2024> (accessed: 06.08.2026).
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoni «O'zbekiston — 2030» strategiyasini «Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida» [Elektron resurs]. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7369703> (murojaat sanasi: 06.08.2026).
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Xorazm viloyatidagi sug'orish tarmoqlari tubdan yangilanmoqda [Elektron resurs]. — 2017. — 14-oktabr. — URL: <https://president.uz/oz/lists/view/1138> (murojaat sanasi: 06.08.2026).
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Barcha toifadagi xo'jaliklarda sug'oriladigan ekin maydoni [Elektron ma'lumotlar to'plami]. — Ma'lumotlar to'plami kodi: 1.03.03.0074. — Yangilangan sana: 30.06.2025. — URL: <https://siat.stat.uz/data/2760/> (murojaat sanasi: 06.08.2026).
12. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi. Suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish: ko'rsatkichlar ortda qolmoqda [Elektron resurs]. — 2025. — 4-aprel. — URL: <https://gov.uz/uz/suvchi/news/view/43779>



- (murojaat sanasi: 06.08.2026).
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi PQ-144-son qarori «Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», amaldagi tahrir [Elektron resurs]. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/5884584> (murojaat sanasi: 06.08.2026).
 14. United Nations Development Programme. Uzbekistan Issues First Ever Green Sovereign Eurobonds Worth 4.25 Trillion UZS on the London Stock Exchange [Electronic resource]. — 2023. — 9 October. — URL: <https://www.undp.org/uzbekistan/press-releases/uzbekistan-issues-first-ever-green-sovereign-eurobonds-worth-425-trillion-uzs-london-stock-exchange> (accessed: 06.08.2026).
 15. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. O'zbekiston milliy valyutadagi suveren xalqaro obligatsiyalarni tarixiy eng past foiz stavkada joylashtirishga erishdi [Elektron resurs]. — 2026. — 2-aprel. — URL: <https://gov.uz/uz/imv/news/view/148946> (murojaat sanasi: 06.08.2026).
 16. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Suveren «yashil» va Barqaror rivojlanish maqsadlari obligatsiyalari bo'yicha taqsimot hamda ta'sir hisobotlari [Elektron resurs] : Uzbekistan May 2024 SDG Bond First Allocation and Impact Report; Uzbekistan February 2025 SDG Bond First Allocation Report; Uzbekistan October 2023 Green Bond First and Second Allocation and Impact Reports. — Toshkent, 2025–2026. — URL: <https://gov.uz/uz/imv/sections/view/22036> (murojaat sanasi: 06.08.2026).
 17. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari muhokama qilindi [Elektron resurs]. — 2026. — 3-fevral. — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. — URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8901> (murojaat sanasi: 06.08.2026).
 18. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksini tasdiqlash to'g'risida : O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrdagi O'RQ-360-son Qonuni [Elektron resurs]. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/2302205> (murojaat sanasi: 06.08.2026).
 19. O'zbekiston Respublikasi. «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida : O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 3-iyundagi O'RQ-387-son Qonuni «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri [Elektron resurs]. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/2662539> (murojaat sanasi: 06.08.2026).
 20. O'zbekiston Respublikasi. Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida : O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrdagi 754-XII-son Qonuni [Elektron resurs]. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/107115> (murojaat sanasi: 06.08.2026).



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Maqsudov Hasan

2026. № 4-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

